

## *Qoraqalpoq turizmidagi diniy ziyoratgohlar*

***Jalgasbayeva Gulasal Marat qızı***

*Qoraqalpoq davlat universiteti 3-kurs talabasi*

***Tursunbaeva Gawhar Bakbergen qizi***

*Qoraqalpoq davlat universiteti 3-kurs talabasi*

***Xojabaev Bawirjan Sansizbaevich***

*Qoraqalpoq davlat universiteti 2-kurs talabasi*

***Mirzabaeva Raysa Quatbaevna***

*Qoraqalpoq davlat universiteti 2-kurs talabasi.*

---

*Annaotatsiya: Maqolada Qoraqalpog'iston Respublikasi hududidagi diniy ziyoratgohlar to'g'risida bayon etilgan.*

*Kalit so'zlar: Turon, Shayx Shibliy, Hakim ota, Sulaymon Boqirg'oniy, Qabaqli ata,*

### **KIRISH:**

Bundan deyarli 14 asr avval Turon zaminiga ham islom dini kirip keldi. Xalifalik islom dini va madaniyatini barcha o'z ta'siri ostida bo'lgan hududlarda joriy etildi. Asrlar o'tib bizning zaminimizdan islom dinining yetuk ulamolari yetishib chiqqan boshladi. Ular faqat Movarounnahr va Xurosonda emas balki butun Xalifalik hududlarida tanildi. Axmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg'oniy, Shayx Shibliy, Imom Eshon shular qatoridan. Mana oradan shuncha vaqt o'tishiga qaramay turkiy xalqlar ularni hali ham hurmat bilan tilga oladi va e'zozlaydi. Ularning qabrlari esa muqaddas ziyoratgohlarda aylantirilgan. Bugungi kunda Qoraqalpog'iston hududida 10 ta bunday ziyoratgohlar qayd etilgan. Bunday ziyorat maskanlari o'z navbatida ichki turizmni tashkil qiladi. Bundan tashqari qo'shni O'rta Osiyo davlatlaridan ham ko'plab turistlar ziyorat qilish maqsadida yurtimizga tashrif buyurishadi. Mana shunday Qoraqalpog'iston hududidagi ziyoratgohlarning ayrimlari haqida ma'lumot berib o'tamiz.

**Hakim ota ziyoratgohi.** Sulaymon Boqirg'oniyni dafn etilgan joyi sifatida qaraladigan bu ziyoratgoh Muynoq tumani hududida joylashgan. Ilgari bu hudud yomon ahvolda qolgan edi. . Qadimda



bu yerlardan Amu oqib otgan. Maqbara suv toshqinlari ostida qolgan bolsa-da, yoqolib ketmagan. Oz davrida sultonlar tomoni-dan qabr ustiga maqbara tiklangan. Hozirgi maqbara esa 1978 yilda bino qilingan. 1911 yilda yozilgan Joyborzoda qalamiga mansub —Manoqibda aytilishicha, Hakim ota (Hazrat Sulaymon) Qur‘oni karimga o‘zgacha hurmat korsatib, darsga borayotib Mushafni boshi uzra ko tarib olar ekan. Buni korgan Ahmad Yassaviy hazratlari uni shogirdlikka taklif etadi. Hakim ota u zotning qolida ta‘lim olib, on besh yoshida muridlikni qabul qiladi. Ahmad Yassaviy tariqatining davomchisi. Hayoti haqidagi ma‘lumotlar turli rivoyatlar bilan aralashib ketgan. Xalq orasida «Hakim ota» nomi bilan ham mashhur. Yassaviyga murid (shogird) bo‘lgan, o‘z iqtidori va she‘riy iste‘dodi bilan piringing e‘tiborini qozongan.

Sulaymon Boqirg‘oniy ustozining tariqati qoidalarini yanada chuqurlashtirib keng xalq ommasiga yetkazgan. Yassaviyona sodda, ravon uslubda ijod qilgan. O‘z asarlarida islomni, shariat va tariqat qoidalarini targ‘ib qilgan, kishilarni u dunyoni o‘ylab yashashga, Allohning karamidan bahramand bo‘lishga da‘vat etgan.

Sulaymon Boqirg‘oniy ma‘rifatni Allohni tanish, uning nazariga tushish, deydi. Oliy muhabbatni Allohga bo‘lgan muhabbat, deb tushuntiradi. U tariqat yo‘lini komil insonni tarbiyalash yo‘li, jannatga eltuvchi yo‘l, deb biladi.

Sulaymon Boqirg‘oniy o‘z o‘g‘itlarida davriga xos ijtimoiy tengsizlik, adolatsizlik va boshqa illatlar uchun javobgar shaxslarni u dunyo azoblari dahshatini eslatish bilan tarbiyalashga ham intiladi. Insofsiz va imonsiz amaldorlar, nopok ishlar bilan shug‘ullanuvchi, xaromxo‘r, nodon va johillar hamda bosqinchi, talonchilarni fosh etadi. Sulaymon Boqirg‘oniy she‘rlari «Boqirg‘on kitobi» nomi bilan mashhur. Uning «Bibi Maryam kitobi», «Oxir zamon kitobi» kabi dostonlari ham bor. Bularda tasavvuf to‘g‘risida o‘z fiqolarini bayon etadi.

Mustaqillik yillarida juda madaniy yodgorliklar, maqbara va ziyoratgohlar qayta ta‘mirlandi. Shu asosda 2022-yili 900 yillik yubileyi munosabati bilan Sulaymon Boqirg‘oniy maqbarasi ta‘mirlandi va uning atrofi obodonlashtirildi.

**Shayx Shibliy maqbarasi** - Kegeyli tumani, Xalqobod elatida „Jalpaq jap“ va „Qumshungil“ ovul fuqorolar yig‘ini hududida joylashgan maqbara. Maqbara milodiy 945-yili 87 yoshida vafot etgan mashhur ulamo Shayx Shibliy sharafiga bunyod etilgan bo‘lib, obyekt davri X—XIV, XVIII—XIX, XX asrlarni o‘z ichiga oladi. Shibliy ota maqbarasi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan 2019-yil 4-oktyabrda Moddiy madaniy merosning ko‘chmas mulk obyektlari milliy ro‘yxatiga kiritilgan va davlat muhofazasiga olingan. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Madaniy meros boshqarmasi operativ boshqaruv huquqi asosida davlat mulkiga tegishli va „Vaqf“ xayriya jamoat fondiga tekin foydalanish shartnomasi asosida birlashtirilgan.

Shayx Shibliyni biladiganlar ko‘p emas. Vaholanki, Farididdin Attorning «Tazkirat ul-avliyo»sida, Alisher Navoiyning «Nasoyim ul-muhabbat» kabi asarlarida bu ulug‘ shayx nomi alohida ehtirom bilan tilga olinadi.

Bobur Mirzo Hazrati Xoji Ubaydullo Ahror qalamiga mansub «Risolai volidiya»si (Otalik risolasi) tarjimasida Shayx Shibliy nomini Junayd Bag‘dodiy nomi bilan Xojalar Xojasi ul Xoji Ubayd Xodim-u Chokariy Shibliy-yu Junayd, deb zikr etadi.

Abubakr Shibliy (859-946) o‘z davrining ko‘zga ko‘ringan ulamolaridan bo‘lgan. U avval Mansur Xalloyning (858-922) shogirdi bo‘lgan. Keyin Junayd Bag‘dodiy (vafoti 911) qo‘lida ta‘lim olgan.

Hazrat Navoiy «Nasoyim ul-muhabbat»da shayx Abu Ja‘far Xaddoddan quyidagi so‘zlarni iqtibos keltirgan: «Agar aql kishi suratig‘a kirsa erdi, Junayd surati bo‘lg‘ay erdi». Ana shu donishmandning suyukli va martabali shogirdi Abubakr Shibliy xalq orasida fiqh, olimi sifatida mashhur



bo'lgan. Alisher Navoiyning yozishicha, Junayd o'z shogirdiga bunday baho bergan: «Har bir qavmning toji bor, bu qavmning toji esa Shibliydur!»

Abubakr Shibliy suhbatini, hatto uni ko'rishning o'ziyozq zamondoshlariga g'urur bag'ishlagan. Uning aytgan hikmatlari, shariat qonunlariga oid fikrlaridan Shibliy dunyodan o'tganidan keyin ham ko'p mashoyixlar dalil sifatida foydalanganlar.

Ma'lum sabablarga ko'ra, sho'rolar davrida Shibliy ta'limoti nazardan chetda qolib keldi. Uning ilmni xalqqa yoyish, Xudoni yurakka jo etib, halol mehnat bilan shug'ullanish, ta'lim-tarbiya haqidagi fikr-xulosalari, ba'zi hikoyat va rivoyatlari, pand-nasihatlarini xanuzgacha xalqimiz orasida barhayot. Shayx Shibliy darvesh libosida bozorga kelib, nonvoydan Xudo yo'liga bir non so'rabdilar. Nonvoy esa, «Qaysi biringga beray, bor, yo'lingdan qolma», deb u kishini ranjitibdi. Ikkinchi nonvoy esa sherigiga «Shayx Shibliyni ko'rish istaging yolg'on ekan-da?» debdi. Qilmishidan pushaymon nonvoy Shayxni darhol topib, bu gunohini yuvish uchun xaloyiqqa «xudoyi» deb osh beribdi. Shayx Shibliy ham ziyofatga tashrif buyurib, to'rda o'tirgan ekanlar. Ma'raka oxirida jamoaning xalfasi Shayxga qarab nonvoy haqida bir duoi xayr tilabdi. Shunda Shayx Shibliy: «Bu nonvoyga duoning xojati yo'q, u do'zaxiydir. Zero, u Xudo yo'liga bir nonni ravo ko'rmadi, Shibliy uchun shuncha ziyofat berdi», degan ekanlar. Qissadan hissa shuki, xayr-exson, mehru muruvvat shunchaki «xo'jako'rsin» uchun emas, chin dildan, Xudo yo'liga, savob uchun bo'lmog'i kerak.

**Qabaqli ota maqbarasi** - Qora'zak tumaniga qarashli „Qora'zak“ OFY, Qabaqli ata qabristonida joylashgan tarixiy yodgorlik. Maqbara XVIII—XIX asrlarga tegishli bo'lib, hozirda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan 2019-yil 4-oktyabrda Moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk obyektlari milliy ro'yxatiga kiritilgan va davlat muhofazasiga olingan. Hozirda Qoraqalpog'iston Respublikasi madaniy meros boshqarmasi operativ boshqaruv huquqi asosida davlat mulki hisoblanadi.

Qadim zamonlarda Orol dengizi sohillari bo'yida yashagan turkiy qavmlarining muqaddas qabristonlaridan biri bo'lgan. „Qabaqli ota“ning asl ismi Sipatdin bo'lganligi manbalarda qayd etilgan. Qabaqli ota bu hududlarga XVII asrning oxirlarida Turkiston tomonlardan kelgan shaxs bo'lgan. U islom dini targ'iboti bilan shug'ullangan ma'rifatchi ulamolardan biri hisoblanadi. Rivoyatlarda aytilishicha, Qabaqli ota yo'l bo'ylab juda katta suv to'la qovoqni orqalab yurgan va cho'lda sayohat qilgan yo'lovchilarga ulashgan. Shu sababdan ham mahalliy aholi uni keyinchalik „Qabaqli ota“ deb atay boshlagan. Qabaqli otaga tegishli ekanligi aytiladigan suv qovog'ining siniqlari hozirgi kungacha saqlanib qolgan. Shu bilan bir qatorda turkmanlarning Qabaqli urug'i ham mavjud bo'lib, XIX asrda Amudaryo qirg'og'ida Qabaqli qo'rg'oni va mudofaa inshooti ham qurilgan. O'z zamonasining ko'plab ziyoli shaxslari, jumladan, Berdaqning ustozlari Jiyen Jirov „Qabaqli ota“ qabristoniga dafn etilgan. O'zbekiston Qahramoni, Oliy Majlis Senati a'zosi olim G'ayratdin Xo'janiyazov ko'plab ziyoratgohlar qatorida Qabaqli ota ziyoratgohining yo'l ko'rsatgich xaritalarini tuzish kerakligini aytib o'tgan.

Islom dini Arabiston yarim orolida paydo bo'lgan bo'lsa ham u Turon zaminida gullab rivojlantirish. Sufizm ta'limoti O'rta Osiyo orqali turkiy davlatlarga tarqaldi. Islom dinining keng tarqalishiga ulkan hissa qo'shgan ulamolar ismini abadiylashtirish va ularning maqbaralarini ziyoratgohlarda aylantirish Qoraqalpog'iston turizmning asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

### Adabiyotlar:

1. Қыркбай Байниязов " Хәким ата - Сулайман Бақырғаний - бизиң уллы жерлесимиз " Нөкис -1997
- 2.Ф.Хожаниязов "Қарақалпақстандағы муқаддес орынлар" - Нөкис - 1994
- 3.Кеңесбай Қунназаров " Қаралпақстанның қала хәм районлары " Нөкис - 2016

